

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.F.Gaybullayeva

No'xat navlarini o'sishi, rivojlanishi bilan oziqlantirish me'yorlarining ta'siri bo'yicha olib borilgan mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlar.....835

Sh.M.Xalmatova, G.M.Maxsudova

Sun'iy quvursimon kovaklardan foydalanib suv eroziyasiga qarshi kurashning samarasi838

M.T.Abdullayeva, F.R.Qurolova

Farg'ona viloyati adirlarida tarqalgan o'simlik turlari841

S.A.Mamatqulova, T.E.Usmanova, I.R.Asqarov

Determination of the amount of paulownia flowers and vitamins in their composition.....847

M.T.Abdullayeva, M.Nazarov

Tuproqni sog'lomlashtirishda mikroorganizmlar va mayda hayvonlarning ahamiyati850

M.Nazarov Mamadali, Sh.M.Khalmatova

Soil pollution by waste and measures to it prevent.....854

D.M.Ahmedova, M.A.Boynazarova, H.S.Turdimatova

Hovuz biotsenozining ekologik xususiyatlari.....857

D.M.Ahmedova, H.S.Turdimatova

Tut o'simligi navlarining bioekologiyasi.....862

Sh.M.Xalmatova, G.M.Maxsudova

O'quvchilarda ekologik tarbiya berishda sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar.....868

ILMIY AXBOROT

Z.V.Alimova, M.A.Usmanova

Navoiyning "Saddi Iskandariy" asaridagi ayrim forscha-tojikcha leksemalar va forsiy izofa haqida871

X.A.Abdulxamidova, M.S.Sobirova

Isajon Sultonning "Ozod" romanida intertekstuallik.....876

M.A.Jo'rayeva

Abdulla Avloniy ijodida safarnomaning o'rni880

A.A.Qayumov, M.Sh.Abdurahimova

Qo'chqor Norqobil qissalarida psixologik tasvir va psixofiziologik holat masalasi884

I.I.Rustamova, D.A.Abduvahobova

Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" asarining badiiy xususiyatlari887

A.G.Sabirdinov

Iqbol Mirzo she'riy mahorati haqida.....890

A.A.Qayumov

Hastalangan ruhiyat tasviri.....894

R.M.Umurzakov

Avtobiografik qissalarda bola obrazi.....899

Q.V.Yo'ldiyev, A.Charos

Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" va georgiy pryaxinning "Sarob" romanlarida ironiyaning o'rni.....903

Z.V.Alimova

Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi "Ganj" va "Gavhar" istilohlari bilan bog'liq leksemalar xususida907

G.A.Ikromova

Dramalar tilida antroponimlarning qo'llanilishi (Sharof Boshbekov dramalari misolida).....913

I.M.Naimjonova, Sh.A.Ganiyeva

Tilshunoslikda maydon tushunchasiga nazariy yondashuvlar.....918

N.A.Abduvaliyeva

Alisher Navoiy g'azallarida qo'llangan fors-tojikcha so'zlarning tahlili masalasi922

A.R.Dadajonov

Muhokama nutqining kompozitsion qurilishi927

D.R.Teshaboyev

Havola bo'lakli ergash gapli qo'shma gaplarda mazmuniy qorishqlik.....930

I.T.Axmadjonov, A.R.Dadajonov

Kelishik shakllari sinonimiyasining semantik xususiyatlari936



UO'K: 378.937+502(075)-053.2

**O'QUVCHILARDA EKOLOGIK TARBIYA BERISHDA SINFDAN TASHQARI
TARBIYAVIY ISHLAR****ВНЕКЛАССНАЯ ВОСПИТАТЕЛЬНАЯ РАБОТА ПО ЭКОЛОГИЧЕСКОМУ
ВОСПИТАНИЮ СВОИХ УЧАЩИХСЯ****EXTRACURRICULAR EDUCATIONAL WORK ON THE ENVIRONMENTAL EDUCATION
OF THEIR STUDENTS****Xalmatova Shoxistaxon Madaminovna¹** ¹Farg'ona davlat universiteti botanika, biotexnologiya va ekologiya kafedrasida dotsenti,
q.x.f.n.**Maxsudova Gulnoraxon Muxammadjonovna²** ²Farg'ona davlat universiteti botanika, biotexnologiya va ekologiya kafedrasida katta
o'qituvchisi**Annotatsiya**

Dars jarayonida ekologik tarbiya doimiy ravishda biologiya, kimyo va fizika darslarida hamda sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar orqali bolalarga atrof - muhit, o'simlik, hayvonlar haqida ma'lumot beriladi hamda tozalik va ozodalikka rioya qilish tabiatdagi barcha narsalarni asrab - avaylash singdirilib boriladi. O'quvchilarga dars jarayonida ekologik tarbiya berish ularning ma'naviy - axloqiy jihatdan kamolotiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Аннотация

На занятиях по экологическому воспитанию в постоянном подходе к биологии, химии и физике на занятиях по биологии, химии и физике в классе и школе проводятся образовательные мероприятия, посвященные высокому уровню окружающей среды - окружающей среде, окружающей среде животных и окружающей среде, а также свежему и свободному наблюдению за природой. На уроке экологического воспитания Берisha подчеркивается влияние духовно - нравственного воспитания на зрелость.

Abstract

In environmental education classes, in a constant approach to biology, chemistry and physics, in biology, chemistry and physics classes in the classroom and school, educational events are held dedicated to a high level of the environment - the environment, the environment of animals and the environment, as well as fresh and free observation of nature. Berisha's environmental education lesson highlights the influence of spiritual and moral education on maturity.

Kalit so'zlar: O'quvchilarida, tarbiyaviy, ekologik, sinf, maktab, tabiat, hayvon, o'simlik, to'garak, suhbatlar, munozara, tadbir, sayohat, didaktik.

Ключевые слова: ученик, воспитание, эколог, класс, школа, природа, животное, мудрость, странствие, любовь, спор, шаблон, путешествие, дидактика.

Key words: student, education, ecologist, class, school, nature, animal, wisdom, journey, love, dispute, pattern, journey, didactics.

KIRISH

Maktab o'quvchilarida ekologik tarbiya berishda sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar alohida ahamiyat kasb etadi. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar o'quvchilarning dars jarayonida olgan bilimlarini mustahkamlash, rivojlantirish va qo'shimcha ma'lumotlar berish maqsadida tashkil qilinadi. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar o'quvchilarning shaxsiy sifatlarini shakllantiradi, tabiat va uning boyliklariga munosabatini oshiradi va qiziqish uyg'otadi. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar o'quvchilarning ekologik madaniyatini tarbiyalab, tabiat, hayvonlar, o'simliklar olami haqida ijobiy tasavvurlar hosil qiladi.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar jarayonida ekologik tarbiyani amalga oshirish yo'llari.

1. Fan to'garaklari.

EKOLOGIYA

2. Tarbiyaviy tadbirlar.

3. Ekologik ekskursiyalar.

Ekologik tarbiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyatlaridan biri to'garaklardir. Bu to'garaklarning asosiy maqsadi jonli va jonsiz tabiat, ularning o'zaro bog'liqligi haqida tasavvur hosil qilish, bahor, yoz kuz, qish fasllarining almashinuvi, ularning o'ziga xos xususiyatlari, bu fasldagi kishilar mehnati, meva va manzarali daraxtlarning o'xshash va farqli jihatlari, daraxt nomlari, qushlarning uchib ketuvchilari yoki qishlashlari bir so'z bilan aytganda tabiat bilan inson o'rtasidagi munosabat odoblarini tarbiyalashga xizmat qiladi.

O'quvchilarga sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar vositasida ekologik tarbiya berishda suhbatlar, munozara - tadbirlar, sayohatga chiqishlar, kecha, bayram tadbirlari orqali amalga oshiriladi. Tashkil qilinadigan bu tarbiyaviy ishlarning har biri o'ziga xos xususiyati bilan ajraladi. Ekologik ta'limning mohiyati - uning asosiy vazifalarini aniqlash va tatbiq etish mazmunidan iborat. Jonli va jonsiz tabiatning o'zaro ta'sirlari, ekologik muammolar va ularni hal etish yo'llari, o'zimiz yashayotgan joyning o'rab olgan muhit to'g'risida ilmiy va amaliy malakalarni shakllantirish, ekologik tavsifdagi qadriyatlarni, ekologik xulq va faoliyatni, ekologik maqsadlarga erishish iroda kuchi va muvaffaqiyatlarini, ilmiy qobiliyatlarini o'rab olgan muhitni, amaliy faoliyatda faol muhofaza qilishga intilishini tarbiyalash.

Ma'lumki, ekologiya haqida dastlabki tasavvurlarni berishda "Biologiya" darslari asosiy o'quv fani bo'lib hisoblanadi. Bu o'quv fanlari ekosavodxonlikni shakllantirishda juda muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarni tabiat bilan yaqindan tanishtirish, sodir bo'layotgan turli xil ekologik hodisalardan muntazam xabardor qilish maqsadida darslarni noan'anaviy metodlarda tashkillashtirib o'tkazish nihoyatda muhim hisoblanadi.

Darslarda "Tabiat va men", "Yosh biolog", "Onajonim tabiat" kabi kichik bellashuvlar va "Tabiatni o'rganaylik" mavzusida davra suhbatlarini tashkil qilish ham o'zining ijobiy samarasini beradi. Negaki, noan'anaviy tarzda tashkil qilingan bunday darslar o'quvchilar dunyoqarashini kengayishi va tabiatga bo'lgan munosabatining shakllanishiga yordam beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'quvchilarda ekosavodxonlikni shakllantirishda fanlararo uzviylik tamoyili turdosh o'quv fanlararo munosabatlarning murakkab jihatlari to'liq o'zlashirilishini ta'minlab, bilimlarning ichki mohiyatiga kirib borilishini ta'minlaydi, natijada turli tizimlar ichki aloqadorlik, integrati yaxlidlik vujudga keladi. O'quv jarayonida fanlararo aloqadorlikning amalga oshirilishi ta'lim sifatiga kuchli ta'sir ko'rsatib, ta'limni modernizatsiyalash, innovatsion o'qitish imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi.

Darhaqiqat, A.N.Zaxlebniy umumiy o'rta ta'lim maktablarida tabiatni muhofaza qilishga yo'naltirilgan ta'limning yaxlit tizimini ishlab chiqar ekan, asosiy e'tiborni ushbu ta'lim doirasida o'quvchilarda shakllanishi zarur bo'lgan umumiy ko'nikmalar mazmuniga qaratadi. Uning ta'kidlashicha, tabiiy muhit muhofazasi bo'yicha o'quvchilarda hosil qilingan nazariy ekologik bilimlar 3 turga bo'linadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Yuqoridagi kabi darslarni faqatgina sinfxonada o'tkazmasdan, tabiat qo'yniga sayohatlar davomida shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Zero, tabiat haqida gapirayotgan o'quvchi o'zi ham tabiatning bir bo'lagi ekanligini bevosita his qilishi juda muhim. Ayni shunday darslar jarayonida o'quvchilarda tabiat va inson o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklari haqida dastlabki tushunchalar hosil bo'ladi. Darslarni ochiq osmon ostida o'tkazish o'quvchini tabiat haqida faktlarini bir qadar tinchlantiradi va boyitadi. Chunki, kitobda o'qigan daraxtning tanasiga qo'l qo'yishi, sur'atini ko'rgan gulning muattar hidini to'yishi yoki qayrilgan butaga tirgovich qo'yishi, iliq nurlari bilan erkalayotgan quyosh orqali o'quvchi tabiat bu ona ekanligini to'liq his qiladi.

Muamoliilik prinsipi keyingi vaqtlarda o'quv dasturi va darsliklarni yaratishda ham o'z aksini topmoqda. Muammoli vaziyatlar asosida ta'lim - tarbiya jarayonini tashkil qilishdan asosiy maqsad ularni hal qilish davomida o'quvchilarni mustaqil tadqiqotchilik faoliyatiga jalb qilish, shu bilan birga ekologik muammolarni bartaraf qilish, yoshlarning faolligini, ongli ishtirokini ta'minlash ularda loqaydlik kayfiyatining yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik uchun imkon yaratishdir.

XULOSA

Keyingi yillarda ekologik kompetentlikni shakllantirish amaliyotida jahon tajribasi sinovidan o'tgan interfaol usullar keng qo'llanila boshladi. Bunday usullarni qo'llashdan maqsad muhokama qilinayotgan muammoni o'rganishda sinfdagi har bir o'quvchini faol jalb qilish orqali to'g'ri javobga erishishda quyidagi tamoyillarga erishish lozim: - didaktik o'yin yoki muammoli vaziyatlarni yaratish va ularni yechishga o'quvchilarni faol jalb qilish orqali to'g'ri javobga erishish; - o'rganiladigan mavzuga bag'ishlangan qiziqarli yoki teskari savollar tuzish, savollarning javoblarini ataylab almashtirib qo'yish so'ngra o'quvchilar sohadagi bilimlarini sinab ko'rish; - aqliy hujum shaklida muayyan masalaning yechimini to'g'ri topa bilish; - toj o'yinini tashkil qilish yo'li bilan o'quvchilarni masalaning tub mohiyatiga yetib borishni ta'minlashdan iboratdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдуназаров Л.М., Тохиров Р.Т. Экологик хавфсизлик ва уни таъминлаш зарурати. "Проблемы современного непрерывного образования: инновации и перспективы" Международная конференция Ташкент 2018 г. –Б. 36-37.
2. Абдуназаров Л.М., Тохиров Р.Т. Экологик таълимда дастурий воситаларни яратиш йўллари. "Узлуксиз таълим тизимида математика ва табиий фанларни ўқитишни такомиллаштириш масалалари, ташкилий-педагогик ва услубий омиллари" Республика илмий-амалий конференция, Қўқон 2018 йил, -Б. 156-158.
3. Xalmatova, S. M., & Maxsudova, G. (2022). SHAXS MA'NAVIY ONGINI SHAKLLASHTIRISHDA OILANING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 677-680.
4. Makhsudova, G. (2022). SHAELLING ECOLOGICAL CONSCIOUSNESS AND CULTURE IN SCHOOLCHILDREN. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(06), 66-73.
5. Feruzaxon, Q., & Mohinur, B. (2023). EKOLOGIK ONGNI TA'LIM TARBIYADA SHAKLLANISHI. *Journal of new century innovations*, 20(4), 3-7.
6. Gulnoraxon, M. (2023). FARG'ONA VODIYSI AHOLISINING TABIATDAN TEJAMLI FAYDALANISH AN'ANALARI. *Journal of new century innovations*, 20(4), 8-13.
7. Mukhammadjonovna, M. G. (2023). Formation of Ecological Consciousness in Education. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 16, 1-3.
8. Maksudova, G. (2024). MODERN PEDAGOGICAL APPROACHES TO THE MODERNIZATION OF ECOLOGICAL EDUCATION. *Development and innovations in science*, 3(3), 79-82.
9. Maksudova, G. (2024). ANALYSIS OF FOREIGN EXPERIENCES ON THE FORMATION OF ECO-LITERACY IN STUDENTS. *International Bulletin of Engineering and Technology*, 4(3), 89-92.
10. Nazarov, M., Maxsudova, M. G., & Usmanova, T. E. (2024). SOYA O 'SIMLIGINI SHONALASH DAVRLARIDA ORGANIK MASSA TO 'PLANISHIGA AZOT O 'G 'ITI ME'YORLARINI TA'SIRI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 15(1), 68-70.
11. Nazarov, M., Usmanova, T. E., Maxsudova, M. G., & Nabiyeva, A. (2024). SOYANING FOTOSINTETIK FAOLYATI VA HOSILDORLIGIGA MINERAL O 'G 'ITLAR TA'SIRI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 15(1), 71-73.
12. Maxsudova, M. G., Usmanova, T. E., & Karimov, M. A. (2024). LIVAN KEDIR (CEDURUS LIBANI) DARAXTI VA UNING FOYDALI XUSUSIYATLARI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 15(1), 74-76.
13. Xolikulov, M., & Ismoilov, B. (2023, June). FARG'ONA VODIYSINING SHARBAT AJRATUVCHI POLIZ O 'SIMLIKLARI. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 2, No. 15, pp. 58-60).
14. Холикулов, М. Р. (2022). АСАЛЛИ ЎСИМЛИКЛАРНИНГ ЎРГАНИЛИШ ТАРИХИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 703-709.
15. Ҳамидов, Ф., Холикулов, М., & Омонбоев, Т. (2022). АСАЛЛИ ЎСИМЛИКЛАР КЛАССИФИКАЦИЯСИ. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(Special Issue 2), 173-179.